

Kutubxona fondini tartibli tashkil etish hamda kitobxonlarga sifatli xizmat ko'rsatishda kataloglar muhim o'rin tutadi. Katalog — bu kutubxonada mavjud adabiyotlar haqida ma'lumot beruvchi bibliografik ko'rsatkich hisoblanadi. U orqali kitobning muallifi, nomi, mavzusi va fondagi joylashuvi aniqlanadi. Kutubxonalarda asosan topografik, alifboli va sistemali kataloglardan foydalaniladi.

Topografik katalog kutubxona fondidagi adabiyotlarning javonlarda joylashish tartibini ko'rsatadi. Ushbu katalog turi asosan kutubxona xodimlari uchun mo'ljallangan bo'lib, kitoblarning saqlanish joyini aniqlashda katta yordam beradi. Topografik katalog orqali fondni inventarizatsiya qilish, adabiyotlarni tartibli joylashtirish va nazorat qilish ishlari amalga oshiriladi. Bu katalog kutubxona fondining ichki tartibini saqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Alifboli katalog esa muallif familiyasi yoki asar nomi bo'yicha alifbo tartibida tuziladi. Kitobxonlar uchun eng qulay katalog turlaridan biri aynan alifboli katalogdir. Agar foydalanuvchi kitob muallifi yoki nomini bilsa, kerakli adabiyotni tez topishi mumkin. Shu sababli alifboli katalog kutubxonada axborot-qidiruv ishlari yengillashtiradi va kitobxonlarga qulaylik yaratadi.

Sistemali katalogda adabiyotlar fan sohalari va mavzular asosida guruhlariga ajratiladi. Bunda BBK yoki UO'K kabi klassifikatsiya tizimlaridan foydalaniladi. Sistemali katalog ilmiy izlanish olib borayotgan kitobxonlar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki bu katalog orqali ma'lum bir fan yoki yo'nalishga oid barcha adabiyotlarni bir joyda ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, tarix, pedagogika, tibbiyot yoki axborot texnologiyalariga oid kitoblar alohida bo'limlarda joylashtiriladi.

Bugungi kunda ko'plab kutubxonalarda elektron katalog tizimlari joriy etilgan bo'lsa-da, an'anaviy kataloglarning ahamiyati saqlanib qolmoqda. Kataloglar kutubxona fondini tartibli yuritish, bibliografik ma'lumotlarni saqlash va kitobxonlarga tezkor xizmat ko'rsatishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois kataloglashtirish ishlari kutubxonachilik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Do'stlik tumani axborot-kutubxona markazi

Fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov

berish bo'limi axborot-kutubxona texnologiyalari

bo'yicha bosh mutaxassis:

Toshtemirova Dilnura